

**“ARSHIN MAL ALAN” O‘ZBEK TEATR SAHNASIDA****Fotima Ismoilova Izzat qizi***O‘zDSMI "San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"**3-bosqich talabasi +998945850306*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Uzeyir Gadjibekovning “Arshin mal alan” nomli pyesasi hamda uning O‘zbek millik akademik drama teatrida sahnalashtirilgani haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “3 so‘m pul, 1 kallaqand, 1 ta mulla”, Uzeyir Gadjibekov, Bahodir Yo‘ldoshev, adaptatsiya, sevgi-muhabbat, anor, yuksak mahorat, juftliklar, nikoh.

Ozarbayjonlik Uzeyir Gadjibekov qalamiga mansub “Arshin mal alan” pyesasi 1913-yilda Peterburgda yozilgan bo‘lib, u ozarbayjon xalqining eng mashhur asari hisoblanadi. Pyesa 4 pardali bo‘lib, u 1913-yilning 25-oktabrida Bakudagi Gadji Zeynalabdin Tagiyeva nomidagi teatrdan sahnalashtiriladi. Unga muallifning o‘zi kompozitorlik qiladi. Komediya Asqar, Jahon, Sulaymon, Vali, Sultonbek, Gulchehra, Osiyo, Telli kabi qahramonlar bo‘lib, ular ichida aniq bir bosh qahramon yo‘q. Teatrshunos Azer Sarabskiyning fikricha asardagi mavzu o‘sha yillarda shu qadar dolzarb bo‘lganki, matbuotda oilaga bog‘liq bo‘lgan maqolalar juda ko‘p bo‘lgan. Sa‘natshunoslar Nigar Alekperova va Boris Zabolotskiylarning ta‘kidlashicha esa “Arshin mal alan” Uzeyir Gadjibekovning ijodiy faoliyatida sifat jihatidan o‘sganligini belgilab bergan. “Arshin mal alan” dunyoning 80 ta tiliga tarjima qilinib, 76 ta davlatdagi 187 ta teatr uni sahnalashtirgan. 2013-yil YUNESKO tomonidan uning 100-yilligi keng miqyosda nishonlangan. Ushbu asar 4 marta ekranizatsiyalashtirilgan bo‘lib, ular orasidan eng mashhuri bu 1945-yilda Rza Taxmasib, Nikolay Leshenko kabi rejissorlar tomonidan olingani hisoblanadi. Ushbu film 136 ta davlatda namoyish etilib juda katta shuxrat qozongan.

“3 so‘m pul, 1 kallaqand, 1 ta mulla” iborasi bilan barchamizga tanish bo‘lgan Uzeyir Gadjibekovning “Arshin mal alan” musiqali komediyasi rejissor Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan O‘zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgach, uning kinosini ko‘rgan teatr ixlosmandlari spektaklni ko‘rishga ishtiyoqlari jo‘shib ketdi. Spektakl o‘zbek xalqiga moslab adaptatsiya qilingani va zamonaviyligi bilan tomoshabinlarni o‘ziga qarata oldi.

Aktyorlar spektaklning birinchi sahnasidanoq o‘zlarining qo‘shiq va raqslari bilan tomoshabinlarga ko‘tarinki ruh bag‘ishlashdi. Asqar mol-dunyosi yetarlicha ekanligi endi faqat unga xotin kerakligini xizmatkori Vali va Dono Sulaymon amakisiga aytadi. Odatga ko‘ra to‘ydan oldin hech kim qizini yuzini ko‘rsatmaganligi uchun ular birgalikda xiyla o‘ylab topishadi. Ya‘ni Asqar “Arshin mal alan” qiyofasiga kirib, gazlamalarni sotib yuradi-da qizlarni ko‘radi va yoqqaniga uylanadi. Gulchehra ismli qizning niyati ham ko‘rib bilib, so‘ng turmushga chiqish bo‘ladi. Shunday qilib u Gulchehraning uyiga Vali bilan boradi. Qizning yuzini ayyorlik bilan ko‘rgach unga oshiq bo‘ladi. Ular o‘rtasida sevgi-muhabbatni tarannum etuvchi qo‘shiqdan so‘ng Asqar Gulchehraning uyiga xolasi Jahonbibini jo‘natadi. Sulton uni

ko'rib 12 yildan buyon beva ekanligini bilgach unga uylanmoqchi bo'ladi va Asqarga buni aytadi. Ular avvaliga kelishisholmaydi, lekin voqealar oxirlab qolganda qizi va xolasini ayirboshlash evaziga to'yni kelishib olishadi. An'anaga ko'ra qiz ya'ni Gulchehra o'g'irlanadi. Spektakl so'ngida nafaqat Gulchehra bilan Asqar balki, Sulton ota bilan Jahonbibi. Gulchehraning dugonasi Telli bilan Vali, Sulaymon bilan Osiyoning ham to'ylari haqida kelishishadi. Hamma shod-u hurram va o'z murod-maqсадiga yetadi.

Sahna chetidagi 4 ta sozandaning qulay joylashuvi, anor mevasining ichidan yigit-qizlar chiqib unda rol ijro etishlari, har xil o'yin-kulgiga boy sahnalar, aktyorlarning mahoratli ijrosi, musiqa va raqs bilan hamohanglikda yorqin chiroqlardan boshqacha tarzda foydalanilganligi bilan ham ushbu spektaklda o'zgacha yondashuvni ko'ramiz. Sozandalarning hech qanday fonogrammalarsiz sahnada jonli tarzda kuy ijro etishlari spektaklning ta'sirchanligini yanada oshirishiga xizmat qilgan. Aktyor hamda aktrisaralar vokal va xoreografik jihatdan juda ham zo'r tayyorgarlik ko'rishgan. Spektaklda o'z obrazini yuksak mahorat bilan ijro etgan Shodiya To'xtayeva – Tellining ijrosiga tasanno aytmay iloji yo'q. Asqar ozarbayjon tilida ijro etayotgan qo'shig'ida aniqlik, soflik yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Uni ko'rib shu millat vakiliga o'xshatishingiz tabiiy. Lekin musiqa qizlarning ovozini tomoshabinga aniq yetib kelishiga biroz to'sqinlik qildi. Sulton ota obrazi esa yoshiga nisbatan juda yosh ko'rinishi bilan aktyor noto'g'ri tanlangan degan fikrga bordim.

Asardagi personajlar aniq qilib bir nechta juftlikka bo'linganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ular jamiyatning turli xil qatlamlariga mansub insonlar va ularda bir-biriga umuman o'xshamaydigan jihatlar juda ham ko'p. Aynan nikoh, oila bilan bog'liq bo'lgan turli xil muammolarni hal qilish uchun barcha juftliklar o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, voqeaga bo'lgan munosabati orqali yechim topishga harakat qilishadi.

Rejissor Nabi Abdurahmonovning fikriga ko'ra, u musiqa va raqsdan aynan tomoshabinlarga spektakl ta'sirliroq ko'rinishi uchun foydalanadi. Ushbu spektaklda ham musiqa va raqsdan xuddi shuning uchun foydalanilgan deyish mumkin. {1}

Spektakl umuman zeriktirmaydigan shunday bir xususiyatga egaki, unga ketgan vaqtingizga hech ham achinmaysiz. Unda faqatgina qiqir-qiqir kulib, estetik zavq olasiz. Yigitlarni bilmadim-ku, lekin qizlar bu spektaklga albatta tushishlari kerak degan bo'lar edim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мухаббат То'лахо'jayeva. “История театра. Узбекский театр периода независимости” 113-bet. {1}